ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI



“FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR” ILMIY-AMALIY METODOLOGIK JURNALI

“ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI
2026-yil 12-noyabr

Toshkent – 2026

ISSN:3093-9240

“Zamonaviy ilm-fan:fanlararo integratsiya va innovatsion taraqqiyot” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami (2026-yil 12-noyabr) – T.: FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR, 2026.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR KENGASHI
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Bafayev Muxiddin Muxammatovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jabborov Xazrat Xusenovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Alimova Yelena Gennadiyevna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“NS-PSIXOTEST EKSPERT” KOMPYUTERLI PSIXODIAGNOSTIK MAJMUASINING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDAGI IMKONIYATLARI

Mavlanov Donyor Ergash o‘g‘li
Sarbon Universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsent v.b.
ORCID: 0009-0000-5171-2057
E-mail: donyor_2102@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada “NS-Psixotest Ekspert” kompyuterli psixodiagnostik majmuasining psixologik va psixofiziologik tadqiqotlardagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Kompleksning psixologik diagnostika, kasbiy tanlov, ta’lim, sport, klinik va ijtimoiy psixologiya sohalarida qo‘llanilish xususiyatlari yoritilgan. Kompleksning psixik jarayonlar, psixik holatlar, shaxs xususiyatlari va psixofiziologik ko‘rsatkichlarni diagnostika qilishdagi imkoniyatlari va afzalliklari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: psixodiagnostika, psixologik test, psixofiziologiya, NS-Psixotest Ekspert, kognitiv jarayonlar, kasbiy tanlov, sport psixologiyasi, psixologik monitoring.

Аннотация. В данной статье анализируются возможности компьютерного психодиагностического комплекса «НС-Психотест Эксперт» в психологических и психофизиологических исследованиях. Освещаются особенности применения комплекса в таких сферах, как психологическая диагностика, профессиональный отбор, образование, а также спортивная, клиническая и социальная психология. Рассмотрены возможности и преимущества комплекса в диагностике психических процессов, психических состояний, личностных особенностей и психофизиологических показателей.

Ключевые слова: психодиагностика, психологическое тестирование, психофизиология, «НС-Психотест Эксперт», когнитивные процессы, профессиональный отбор, спортивная психология, психологический мониторинг.

Abstract. This article analyzes the capabilities of the "NS-Psychotest Expert" computerized psychodiagnostic complex in psychological and psychophysiological research. It highlights the features of the complex’s application in the fields of psychological diagnostics, professional selection, education, sports, as well as clinical and social psychology. The article also examines the possibilities and advantages of the complex for diagnosing mental processes, psychological states, personality traits, and psychophysiological indicators.

Keywords: psychodiagnostics, psychological testing, psychophysiology, NS-

Psychotest Expert, cognitive processes, professional selection, sports psychology, psychological monitoring.

KIRISH

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi psixologik tadqiqotlar metodologiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy psixologiyada diagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish, natijalarni statistik qayta ishlash va inson omili ta’sirini minimallashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan apparat-dasturiy psixodiagnostik tizimlar amaliyotga keng joriy qilinmoqda.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda psixologik tadqiqotlarda qo‘llanilayotgan zamonaviy komplekslardan biri “NS-Psixotest Ekspert” hisoblanadi. Mazkur majmua vegetativ va hissiy reaktsiyalarni ro‘yxatga olish bilan psixofiziologik va psixologik testlarni o‘tkazish uchun kompyuter kompleksi hisoblanib, psixologik va psixofiziologik ko‘rsatkichlarni kompleks baholash, diagnostika natijalarini avtomatik qayta ishlash hamda individual va guruhiy tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Kompleks tarkibida 600 dan ortiq psixologik va psixofiziologik metodikalar mavjud bo‘lib, ular umumiy, klinik, kasbiy, sport, bolalar va ijtimoiy psixologiya yo‘nalishlarini qamrab oladi [1].

Psixologik diagnostika tizimlarining asosiy vazifasi insonning individual-psixologik xususiyatlarini obyektiv aniqlashdan iborat. An’anaviy qog‘ozli testlar bilan solishtirganda kompyuterli diagnostik tizimlar natijalarni qayta ishlash tezligi, o‘lchash aniqligi va ma’lumotlarni saqlash imkoniyatlari bilan ajralib turadi. “NS-Psixotest Ekspert” tizimida reaksiya vaqtlarini 1 millisekund aniqlikda qayd etish imkoniyati mavjudligi uning psixofiziologik tadqiqotlardagi samaradorligini oshiradi [1; 2].

Mazkur maqolaning maqsadi “NS-Psixotest Ekspert” kompyuterli psixodiagnostik majmuasining zamonaviy psixologik tadqiqotlardagi o‘rni, imkoniyatlari va amaliy ahamiyatini ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Psixologik diagnostikani kompyuterlashtirish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. Dastlabki kompyuterli test tizimlari kognitiv jarayonlarni baholash uchun yaratilgan bo‘lsa, keyinchalik ular shaxs xususiyatlari, emotsional holatlar va psixofiziologik funksiyalarni o‘rganishga moslashtirildi [2].

Psixodiagnostik texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotchilar kompyuterlashtirilgan test tizimlarining ishonchliligi, validligi va diagnostik imkoniyatlarini o‘rganganlar. Natijalar zamonaviy apparat-dasturiy komplekslar psixologik tadqiqotlarning obyektivligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatgan [3].

“NS-Psixotest Ekspert” majmuasi Rossiyaning Нейрософт kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, psixologik va psixofiziologik diagnostikani amalga oshirish uchun mo‘ljallangan. Tizim umumiy psixodiagnostika, kasbiy saralash, klinik diagnostika, bolalar psixologiyasi, sport psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Kompleks tarkibida yuzlab standartlashtirilgan metodikalar mavjud bo‘lib, ular yordamida kognitiv jarayonlar, emotsional holatlar, shaxs xususiyatlari va nerv tizimining funksional holati baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasini ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlari tashkil etdi. Shuningdek, “NS-Psixotest Ekspert” tizimining texnik va diagnostik imkoniyatlari o‘rganildi hamda turli psixologik yo‘nalishlarda qo‘llanilishi tahlil qilindi [1].

“NS-Psixotest Ekspert” majmuasining funksional imkoniyatlari

“NS-Psixotest Ekspert” apparat-dasturiy majmuasi zamonaviy psixologik va psixofiziologik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan kompleks tizim hisoblanadi. Mazkur tizimning asosiy afzalligi diagnostika jarayonining avtomatlashtirilganligi, natijalarning tezkor qayta ishlanishi hamda psixologik ko‘rsatkichlarni obyektiv baholash imkoniyatining mavjudligidir [1].

Majmua tarkibida psixik jarayonlar, shaxs xususiyatlari va psixofiziologik ko‘rsatkichlarni baholashga qaratilgan ko‘plab metodikalar mavjud. Ularning aksariyati xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan standartlashtirilgan diagnostik vositalarning elektron variantlari hisoblanadi [3].

Tizim yordamida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish mumkin:

- diqqat va xotirani baholash;
- tafakkur jarayonlarini o‘rganish;
- emotsional holatlarni aniqlash;
- temperament va xarakter xususiyatlarini baholash;
- kasbiy layoqatni aniqlash;
- sensor-motor reaksiyalarni o‘lchash;
- psixofiziologik ishchanlik darajasini baholash;
- stressga chidamlilik va moslashuv imkoniyatlarini aniqlash.

Mazkur imkoniyatlar psixologik tadqiqotlarni kompleks tarzda tashkil etish va inson psixikasining turli jihatlarini bir vaqtning o‘zida baholash imkonini beradi.

Kognitiv jarayonlarni diagnostika qilish imkoniyatlari

Kognitiv jarayonlar inson faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Diqqat, xotira va tafakkur darajasi shaxsning o‘quv, mehnat va sport faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biridir [6].

“NS-Psixotest Ekspert” tizimi yordamida diqqatning barqarorligi, taqsimlanishi,

koʻchuvchanligi va konsentratsiyasi aniqlanadi. Shulte jadvallari, Landolt halqalari va boshqa metodikalar asosida olingan natijalar diagnostika qilinayotgan shaxsning axborotni qabul qilish va qayta ishlash samaradorligini baholash imkonini beradi [4].

Xotira jarayonlarini oʻrganishda qisqa muddatli, operativ va mantiqiy xotira koʻrsatkichlari aniqlanadi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, kompyuterlashtirilgan diagnostika inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirib, natijalarning aniqligini oshiradi [2].

Tafakkur diagnostikasi esa mantiqiy operatsiyalar, tahlil va sintez qilish qobiliyati, muammoli vaziyatlarni hal etish tezligi kabi koʻrsatkichlarni baholash imkonini beradi.

Psixofiziologik koʻrsatkichlar insonning markaziy nerv tizimi faoliyati bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu sababli ularni baholash sport psixologiyasi, kasbiy saralash va klinik amaliyotda muhim oʻrin tutadi [7

“NS-Psixotest Ekspert” yordamida oddiy va murakkab koʻruv-motor reaksiyalari, tanlov reaksiyasi, harakat koordinatsiyasi va sensor-motor javob tezligi aniqlanadi. Ushbu koʻrsatkichlar insonning tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini baholash imkonini beradi [1].

Psixofiziologik tadqiqotlar natijalari shuni koʻrsatadiki, yuqori tezlikda va aniqlik bilan bajariladigan faoliyat turlarida reaksiya vaqtining qisqaligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sportchilar, haydovchilar, operatorlar va harbiy xizmatchilar faoliyatida ushbu koʻrsatkichlar katta ahamiyatga ega [7].

Ta’lim jarayonida oʻquvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Shu sababli psixologik diagnostika vositalaridan foydalanishga ehtiyoj ortib bormoqda.

“NS-Psixotest Ekspert” tizimi yordamida oʻquvchilarning:

- diqqat darajasi;
- intellektual rivojlanishi;
- kasbiy qiziqishlari;
- motivatsion yoʻnalganligi;
- emotsional holati aniqlanishi mumkin.

Olingan natijalar asosida individual rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqish hamda kasbga yoʻnaltirish ishlarini samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

Sport psixologiyasidagi imkoniyatlari

Sport faoliyati nafaqat jismoniy, balki psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Musobaqa natijalariga sportchining emotsional barqarorligi, diqqat darajasi, stressga chidamliligi va psixofiziologik holati sezilarli ta’sir koʻrsatadi [8].

“NS-Psixotest Ekspert” yordamida sportchilarning:

- musobaqaoldi xavotirlanish darajasi;

- diqqatning barqarorligi;
- psixik ishchanlik koʻrsatkichlari;
- reaksiya tezligi;
- emotsional holati kabi jaihatlari baholanishi mumkin.

Natijalar sportchilarni individual tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish hamda musobaqalarga psixologik tayyorlash sifatini oshirish imkonini beradi.

Kasbiy saralash va professional diagnostika

Kasbiy saralash tizimlarida psixologik diagnostika muhim oʻrin tutadi. Ayrim kasblar yuqori darajadagi masʼuliyat, diqqat va tezkor qaror qabul qilishni talab qiladi.

“NS-Psixotest Ekspert” majmuasi yordamida nomzodlarning:

- psixologik tayyorgarligi;
- stressga bardoshliligi;
- ishchanlik qobiliyati;
- kasbiy muhim sifatlari baholanadi.

Bu esa kadrlarni tanlash va joylashtirish jarayonlarining ilmiy asoslanganligini taʼminlaydi [3].

Tadqiqot natijalarining umumlashtirilgan tahlili

Oʻtkazilgan tahlillar natijasida “NS-Psixotest Ekspert” majmuasi quyidagi afzalliklarga ega ekanligi koʻrish mumkin:

- diagnostika natijalarining yuqori aniqligi;
- maʼlumotlarni avtomatik qayta ishlash imkoniyati;
- tadqiqot oʻtkazish vaqtining qisqarishi;
- keng koʻlamdagi metodikalar bazasining mavjudligi;
- individual va guruhiy tekshiruvlarni amalga oshirish imkoniyati;
- psixologik va psixofiziologik koʻrsatkichlarni kompleks baholash imkoniyati.

Mazkur afzalliklar tizimning ilmiy tadqiqotlar va amaliy psixologiya uchun samarali vosita ekanligini koʻrsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻrganilgan tahlillar natijasida “NS-Psixotest Ekspert” apparat-dasturiy majmuasi zamonaviy psixologik diagnostika tizimlari orasida alohida oʻrin egallashini koʻrsatdi. Majmua psixologik va psixofiziologik koʻrsatkichlarni obyektiv baholash, natijalarni tezkor qayta ishlash hamda ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Tizimning taʼlim, sport, klinik psixologiya va kasbiy saralash sohalarida qoʻllanilishi psixologik baholash jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, inson omili taʼsirini kamaytirish, natijalarni standartlashtirish va maʼlumotlarni elektron shaklda saqlash imkoniyatlari uning muhim afzalliklari hisoblanadi.

Shuningdek, “NS-Psixotest Ekspert” yordamida olingan maʼlumotlar shaxsning

bilish jarayonlari, psixik holatlari hamda individual-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, rivojlantiruvchi va korreksion dasturlar ishlab chiqish hamda kasbiy faoliyat samaradorligini prognozlash imkonini beradi.

Kelgusida ushbu majmua yordamida o‘smirlar, talabalar, sportchilar va turli kasb vakillarining psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar psixologik diagnostika amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “**Psychoexpert”** psixologik markazida “NS-Psixotest Ekspert” apparat-dasturiy majmuasi yordamida zamonaviy, ilmiy asoslangan va obyektiv psixodiagnostik xizmatlar ko‘rsatilib, shaxsning kognitiv, emotsional hamda psixofiziologik ko‘rsatkichlarini kompleks diagnostika qilish imkoniyati yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Нейрософт. НС-Психотест Эксперт: компьютерный комплекс для проведения психофизиологических и психологических тестов с регистрацией вегетативных и эмоциональных реакций [Электронный ресурс].
2. Немов Р.С. Психология. В 3-х книгах. – Москва: Владос, 2021.
3. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика: учебник для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – Санкт-Петербург: Питер, 2021. – 384 с.
4. Райгородский Д.Я. Практическая психодиагностика: методики и тесты: учебное пособие. – Самара: Бахрах-М, 2015. – 672 с.
5. Карелин А.А. Большая энциклопедия психологических тестов. – М.: Эксмо, 2008. – 416 с.
6. Маклаков А.Г. Общая психология: учебник для вузов. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. – 583 с.
7. Шадриков В.Д. Профессиональные способности. – М.: Университетская книга, 2010.
8. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – 2-е изд. – М.: Политиздат, 1977. – 304 с.

MUNDARIJA

1.	**MAKTAB PSIXOLOGIYASI AMALIYOTIDA O‘SMIRLARDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA PROFILAKTIKASI** **Xayrullayeva Baxtigul Ilxomjon qizi**	**5**
2.	**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA, NAZARIYA VA AMALIYOT** **Jalilov Otabek Baxodirovich**	**10**
3.	**O‘SMIRLARDA PROBLEMATIK INTERNETDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA PSIXOLOGIK PROFILAKTIKASI** **Mansurova Zeboxon Tursinboyevna**	**16**
4.	**PSIXOLOGIYAGA OID TADQIQOTLARDA SPSS DASTURIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA STATISTIK TAHLIL ANIQLIGINI TA’MINLASH** **Nazarov Davron Baxtiyor o‘g‘li**	**26**
5.	**O‘SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI** **Arslonova Nafosat Akbaraliyevna, Ashurov Ramzidin**	**32**
6.	**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA INTEGRATSIYAGA ASOSLANGAN DARSLARNI TASHKIL ETISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH** **Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi**	**38**
7.	**ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOG VA OTA-ONA HAMKORLIGI** **Abduqodirova Dilobarbonu Erkinjon qizi**	**46**
8.	**SHAXS TEMPERAMENT TIPLARINI QO‘L TERMOGIGROANALIZI ORQALI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI** **Z.D. Dilmurodova**	**52**
9.	**СУБЪЕКТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНАЯ АКТИВИЗАЦИЯ ЛИЦ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА КАК ПСИХОПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ БАРЬЕР НЕЙРОДЕГЕНЕРАТИВНОЙ ПАТОЛОГИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Иброхимов Хусниёр Абдукарим угли**	**58**
10.	**KIMYO TA’LIMIDA AN’ANAVIY VA INNOVATSION O‘QITISH METODLARINI UYG‘UNLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI** **Sulaymonqulov Islomjon, Tursunova Yu. B.**	**63**
11.	**ZAMONAVIY TA’LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING NAZARIY ASOSLARI VA FUNKSIONAL IMKONIYATLARI** **Usmonova Zuxra Alisher qizi, Tursunova Yu.B.**	**68**

12.	**AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY DIDAKTIK PARADIGMALARDA TA’LIM NATIJALARINI TASHXISLASH YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI**	
	Tursunova Feruza Otaqulovna	**73**
13	**ERTA NIKOHNING HUQUQIY VA PSIXOLOGIK OQIBATLARI**	
	Umarova Gulbaxor Maxamad qizi	**78**
14	**TA’LIMDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNING YANGI PARADIGMASI: RAQAMLI MUHIT, SHAXS VA PEDAGOGIK HAMKORLIK**	
	Qudratova Zarnigor Anvar qizi	**83**
15	**DINIY OG‘ISHLAR KONTEKSTIDA OMILLAR, PROFILAKTIKA VA PSIXOKORREKSIYA**	
	Agzamova Malika Muratovna, Turatoshova Zarnigor	**88**
16	**MILLIY VA ZAMONAVIY OILALARDAGI O‘ZARO FARQLAR. OILAVIY QADRIYATLAR, MULOQOT VA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**93**
17	**PALLIATIV YORDAMDA OILA A’ZOLARINING PSIXOLOGIK HOLATI: EMOTSIONAL TOLIQISH, QAYG‘U VA STRESS**	
	Bobomurotova Aziza Rustam qizi	**98**
18	**INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA PEDAGOGLARDA EMOTSIONAL SO‘NISH SINDROMINING OLDINI OLISH - BARQAROR TA’LIM MUHITINING PSIXOLOGIK SHARTI**	
	N. Umirzakova	**102**
19	**OILALARDA SHAXSIY CHEGARALARNING O‘RNI: O‘ZBEK OILALARINING MILLIY-MADANIY QADRIYATLARI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK EHTIYOJLARI KONTEKSTIDA**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**106**
20	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI IDEAL AYOL OBRAZI VA AYOLLARDA AYBDORLIK HISSINING SHAKLLANISHI**	
	Shakirova Shahnozabonu Tuxta qizi	**111**
21	**SPECTRAL AND IMAGING SIGNATURES OF ACCRETION FLOWS AROUND ROTATING BLACK HOLES**	
	Ochiltosheva Durdonagul Zamon qizi	**115**
22	**ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ ЛИЧНОСТИ**	
	Хатамова Камилла Шухратовна, Баходирова Нозима Рустамовна	**121**
23	**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA FONETIK-FONEMATIK IDROKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**	
	Boboqulova Surayyo Madrahim qizi	**127**
24	**ИЗМЕНЕНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ДЛИТЕЛЬНОГО ЛЕЧЕНИЯ РЕБЁНКА С ОНКОЛОГИЧЕСКИМ ЗАБОЛЕВАНИЕМ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна	**130**
25	**MAKTABGACHA TA’LIMDA NUTQIY RIVOJLANISH**	**136**

	Ruziyeva Dilfuza Nuritdinovna	
26	**СОЦИАЛЬНОЕ СРАВНЕНИЕ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ КАК ФАКТОР СНИЖЕНИЯ САМООЦЕНКИ ЛИЧНОСТИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Юсупбаева Гоззал Юсупбаевна, Ганибекова Ситора Отабековна, Мадаминова Гулчехра Мардонбековна	**141**
27	**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KASB HUNARGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI**	
	Sharipova Guzal Sodiqovna, Musayeva Madina Jahongir qizi	**145**
28	**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ СТУДЕНТОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Раимжанова Севинч Олимовна, Марсакова Малика Фазилиддин кизи, Махмудова Ширин Муроджон кизи	**153**
29	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI LAYK VA IZOHLARNING O‘SMIRLARDA TASHQI BAHOLANISHGA EHTIYOJ SHAKLLANISHIGA TA’SIRI**	
	Maxmudov Salimjon Uralovich	**158**
30	**ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ВОСПРИЯТИЕ СОБСТВЕННОЙ ЛИЧНОСТИ И САМООЦЕНКУ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Багаутдинова Саида, Курамшина Алия	**164**
31	**MOLIYAVIY STRESSNING IQTISODIY QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA’SIRI**	
	Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**168**
32	**ШКОЛЬНЫЙ БУЛЛИНГ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ПОДРОСТКОВ: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И ПРОФИЛАКТИКА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Абдуллаева Манзура Олимбек кизи, Солтоева Мадинахон Дилшод кизи	**172**
33	**O‘SMIRLARDA DEVIANTLILIKNING KONATIV ASPEKTLARINI TADQIQ ETISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**	
	Turayeva Gulchehra Urayimovna	**179**
34	**СПЕЦИФИКА ТЕЛЕСНЫХ ЖАЛОБ У ЛИЦ С РАЗЛИЧНОЙ ВЫРАЖЕННОСТЬЮ АЛЕКСИТИМИИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Панасырова Сабина Вячеславовна, Набижанова Нигорахон Нематжановна, Герман Карина Алексеевна	**184**
35	**“NS-PSIXOTEST EKSPERT” KOMPYUTERLI PSIXODIAGNOSTIK MAJMUASINING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDAGI IMKONIYATLARI**	
	Mavlanov Donyor Ergash o‘g‘li	**191**

36	**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ МЕХАНИЗМЫ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ БЛИЗОСТИ В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Слодкина Валерия Дмитриевна, Хисаметдинова Элина Эмильевна**	**197**
37	**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA KICHIK QUVVATLI SHAMOL ELEKTR QURILMALARINING ENERGETIK KO‘RSATKICHLARINI VEYBULL TAQSIMOTI ASOSIDA BAHOLASH VA OPTIMAL TURBINA TANLASH** **D.A. Tursunov, N.A. Nasulloyeva**	**201**
38	**PLUGLARNING TURLARI VA ULAR BILAN TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISH AHAMIYATI** **Fayzulloyev Muxriddin Nasriddin o‘g‘li, Sayfulloyev Azizbek Anvarjon o‘g‘li, Orziyev Sardor Samandar o‘g‘li**	**208**
39	**BUXORO VILOYATI ISSIQ IQLIM SHAROITIDA FOTOELEKTR MODULLARNING HARORAT REJIMINI MODELLASHTIRISH VA PASSIV RADIATORLI SOVITISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH** **D.A. Tursunov, U.Q. Shermetov**	**215**
40	**“BUXORO HETK” AJ TAQSIMLOVCHI TARMOQLARIDA SUN’IY INTELLEKT VA MASHINALI O‘QITISH USULLARINI QO‘LLASH** **A.H. Shoboyev, N.M. Amrulloyeva**	**223**
41	**PAXTA SANOATIDA TOSH TUTGICH QURILMASINI AHAMIYATI VA ISHLASH MEXANIZMI** **Raxmonov Xayridin Qodirovich, Baxshilloyeva Shaxrizoda Davlat qizi**	**230**
42	**O‘ZBEK SHE’RIYATIDA “VATAN” KONSEPTINING KONTRASTLAR ORQALI IFODALANISHI** **Xolmo‘minova Mahliyo Ravshan qizi**	**234**
43	**АНГЛИЙСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ: ТЕМАТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ И СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ** **Тураханов Акром Абдуллахакимович, Тураханова Фируза Шавкатовна**	**238**
44	**BUYUK DAVLAT ARBOBI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR** **Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi**	**256**
45	**INNOVATIVE APPROACHES TO TRANSFORMING LIFELONG EDUCATION: FOREIGN EXPERIENCE, PROBLEMS AND SOLUTIONS** **Akrom Abdullakhakimovich Turakhanov, Firuza Shavkatovna Turakhanova**	**261**
46	**LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ PRODUCTIVE LANGUAGE SKILLS IN ENGLISH** **Meylinorova Feruza Baxtiyor qizi**	**269**

47	**HOZIRGI O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING MAVZUVIY-KONSEPTUAL VA STRUKTURAVIY-SEMANTIK MOSLASHUV XUSUSIYATLARI**	
	Turaxanov Akrom Abdullaxakimovich, Turaxonova Firuza Shavkatovna	**275**
48	**SUN’IY INTELLEKT VA O‘ZBEK ADABIYOTI: MUALLIFLIK, INTERTEKSTUALLIK VA BADIIY QIYMAT MASALALARI**	
	Narmatova Manzura Tulaganovna	**289**
49	**PRAGMATIC TRANSFER AND CULTURAL BIAS IN LARGE LANGUAGE MODEL TRANSLATIONS OF HIGH-CONTEXT SPEECH ACTS**	
	Nurullayev Mirzabek Kobil ugli, Usmonkulova Nilufar Uchkun kizi	**298**
50	**THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLEGENCE IN EDUCATION: OPPORTUNITIES, PROBLEMS, PROSPECTS**	
	Teshaboyeva Jasmina Elmuradovna, N.Kh.Kholmakhmadova	**303**
51	**TILSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK LEKSIKANING NAZARIY ASOSLARI**	
	Xolmurodova Parvena Mamayusupovna, Bakirov Poyan Uralovich	**307**

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/conference/r
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz